

**TALABALARDA TASHKILIY XULQNI RIVOJLANTIRISH
ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM SIFATINI
YAXSHILASHNING DOLZARB MASALALARI**

Gulyamova Nadira Gafurovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), NamMTI

Annotatsiya. Maqolada talabalarda tashkiliy xulqni muntazam rivojlantirib borish asosida integratsiyalashgan ta’limning sifatini yaxshilashga oid dolzarb masalalar yoritilgan. Shuningdek, tashkiliy xulq tushunchasi, tashkiliy xulq subyektlarining ichki hamda tashqi oʻzgarishlarga munosabat bildirish usullari ta’kidlab oʻtilgan. Tashkiliy xulqning asosiy omillari, xulqning eng muhim tarkibiy qismlari va mezoniy unsurlari toʻgʻrisida tavsiflar qayd etilgan.

Kalit soʻzlar: integratsiya, talabalar, tashkiliy xulq, rivojlantirish, ichki hamda tashqi oʻzgarishlar, unsurlar

Ta’lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda boʻlayotgan barcha oʻzgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda oʻz tuzilishi va faoliyat mazmunini oʻzgartirishi zarur. Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarni ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilgʻor yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma’lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta oʻzlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Ijtimoiy jamiyatning tez va chuqur oʻzgaruvchanligi jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs hamda jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida koʻzga yaqqol tashlanmoqda. Xususan, bunday munosabatlar talabalarda tashkiliy xulqni muntazam rivojlantirib borishni taqozo etadi. Har qanday tashkilotning negizi, birinchi navbatda, mutaxassislar hisoblanadi, ular tashkilot mohiyatining asosini tashkil qiladi, shu sababli tashkilotni oʻrganishda mutaxassis boshlangʻich nuqta boʻlishi kerak. Shu bois mutaxassisning tashkilotdagi xulqiga taalluqli masalalarni koʻrib chiqishga katta eʼtibor qaratilishi zarur. Ularning koʻpchiligi oʻzining butun ongli hayotini tashkilotlarda oʻtkazadilar va ongli yoki ongsiz

ravishda, o‘z ixtiyori bilan yoxud majburiy ravishda tashkilot hayotiga qo‘shilib, uning qonunlari bo‘yicha yashaydilar. Shuningdek, tashkilotga nimanidir berib, uning o‘rniga tashkilotdan ham nimadir olgan holda tashkilotning boshqa ishtirokchilari bilan o‘zaro hamkorlik qiladilar. Shu munosabat bilan “tashkiliy xulq” tushunchasi va uning mohiyatini o‘rganish oliy ta’lim muassasalari talabalarining bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda tashkiliy xulqni rivojlantirish asosida integratsiyalashgan ta’limning sifatini yaxshilash masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolardan sanaladi.

Tashkiliy xulq bu – subyektlar (insonlar, guruhlar, jamoalar)ga ta’sir ko‘rsatuvchi va ko‘p jihatdan ularning xulqini hamda bir-biri bilan va tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatini belgilab beruvchi ruhiy, ijtimoiy va tashkiliy-iqtisodiy jihatlar va omillar to‘g‘risidagi kompleksdir. Shuningdek, tashkiliy xulq subyektlarning va faoliyat subyekti sifatida o‘zining yuz berayotgan ichki va tashqi o‘zgarishlarga munosabat bildirishi usullarini aks ettiradi. Tashqi va ichki muhit omillarining doimiy ta’siriga duchor bo‘lib, o‘zining barqaror holatini va rivojlanishini ta’minlovchi mexanizmlarni takomillashtirishga intiladi [4].

Tashkiliy xulq shunday namoyon bo‘ladiki, bo‘lg‘usi mutaxassis kadrlar o‘z majburiyatlarini ishonchli tarzda va halol bajarishi, ular ishning manfaatlari uchun o‘zgaruvchan vaziyat sharoitida o‘zlarining bevosita majburiyatlari doirasidan tashqariga chiqishi, qo‘shimcha sa’yharakatlarni amalga oshirishi, faollik namoyish etgan holda o‘zaro hamkorlik uchun imkoniyat topishi mumkin. Talabalarda tashkiliy xulqning samaradorligiga quyidagi asosiy omillar ta’sir ko‘rsatadi: ichki (tashkiliy) – guruhning o‘lchami, rollar tarkibi va soni, guruhning maqomi, ichki kommunikatsiya, guruhdagi faoliyat maqsadlari, guruhdagi hamjihatlik va yetakchilik; tashqi muhit omillari – tabiiy joylashuvi, guruhning roli, kommunikatsiyalar.

Talabalarining tashkilotdagi xulqi ularning shaxsiy xususiyatlari, uning faoliyatini shakllantirish shartlarining ta’siri – ular kiritilgan guruhning o‘ziga xos xususiyatlari, birgalikda faoliyat yuritish shartlari, ular ishlayotgan tashkilot va mamlakatning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. O‘z navbatida, bo‘lajak mutaxassis sifatida talabalarni tashkiliy muhitga muvaffaqiyatli qo‘shish, ularni o‘zini tutishga o‘rgatish ushbu muhitning xususiyatlariga ham, shaxslarning xususiyatlariga ham teng darajada bog‘liq.

Talabalarning xususiyatlari – tabiiy xususiyatlar: organizmning fiziologik holati, yuqori asab faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, xotira, his-tuyg‘ular, hissiyotlar, idrok qilish hamda ijtimoiy omillar ya’ni, ta’lim, tajriba, odatlar, muloqot doirasi kabilar ta’siri ostida shakllanadi.

Har qanday mutaxassis kadrlar quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- umumiy xususiyatlar;
- o‘ziga xos xususiyatlar;
- faoliyatning muayyan turiga tayyorlanganlik;
- muayyan xususiyat tarzi;
- yo‘naltirilganlik (ijtimoiy faollikning yo‘naltirilganligi);
- biologik shartlangan xususiyatlar;
- ruhshunosik xususiyatlar;
- faoliyat doirasi, ishlash uslubi va ruhiyat dinamikasi;
- ruhiy holat [1].

Talabalar xususiyatlari ko‘p jihatdan ularga yuklangan funksiyalarni bajarishning sifatiga, ish uslubiga, atrofidaqilar bilan munosabatga ta’sir ko‘rsatadi. Ulardagi xulqining eng muhim sifatlarini quyidagi uchta tarkibiy qism tashkil qiladi: motivatsiya; qabul qilish; mezoniy asos. Kasbiy faoliyat davomida xulqning yo‘nalishi va uning shakllarini motivlar, ichki intilishlar belgilab beradi. Bir xulqning o‘zi turli motivatsion asosga ega. Motivatsiya – talabalar xulqini va unga ta’sir etish imkoniyatlarini tushunish uchun kalit hisoblanadi.

Idrok qilish – atrofdaqi olam haqidagi tasavvurlarni hosil qilish va talqin etish jarayoni [2]. U axborotni qabul qilish va qayta ishlash bo‘yicha chala ongli faoliyatni o‘zida namoyon etadi. Idrok qilish ko‘p jihatdan subyektiv jarayon bo‘lganligi bois, u axborotning to‘liq yoki qisman buzib ko‘rsatilishi yoxud yo‘qotilishi ehtimoliga ega. Idrok qilish natijasida idrok qilinayotgan obyektga nisbatan turli xildagi subyektiv munosabatlar paydo bo‘lishi mumkin: qabul qilish, qabul qilmaslik, «tuyaqush xulqi». Idrok qilishga obyektiv hamda subyektiv vaziyatlar ta’sir ko‘rsatadi. Ular: axborot kelib tushadigan yoki tanishuv yuz beradigan vaziyat; real vaziyatni ko‘rish chuqurligi; idrok qilinayotgan obyektning shaxsiy va ijtimoiy tavsiflari; talabalarga xos bo‘lgan umumiy andozalar. Idrok qilishga uning tanlash xususiyati – talabalar haqidagi barcha axborot ham qabul qilinmaydi; globallik – obyekt yaxlit narsa sifatida qabul qilinadi; yetarlicha tarkiblanmaganlik – asosiydan boshqa hammasi fon

sifatida qabul qilinadi; o‘xshash narsalar yagona narsa sifatida qabul qilinadi – o‘xshash obyektlar ajratib olinadi va birlashtiriladi, hammasi eski tajribaga bog‘lanadi.

Talabalar xulqining mezoniy asosiga uning tanlash, o‘zining xulqi yuzasidan qarorlar qabul qilishini belgilovchi barqaror xususiyatlari kiradi. Talabalarning mezoniy bazasi quyidagi unsurlardan shakllanadi: voqealar, jarayonlarga moyilligi; yaxshi ko‘radigan qadriyatlar yig‘indisi; amal qiladigan e’tiqodlar; o‘z yurish-turishida amal qilishi lozim bo‘lgan tamoyillar [3].

Ta’lim muassasalari talabalarining shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish zarurligi shubhasiz. Biroq, shuni yodda tutish lozimki, talabalarning ta’lim muassasalaridagi xulqi nafaqat uning shaxsiy xislatlariga, balki uning harakatlari amalga oshirilayotgan vaziyatga ham bog‘liq. Shunday qilib, talabalarning xulqiga, birinchi galda, quyidagi tashqi omillar ta’sir ko‘rsatadi: muloqot doirasi, u his-tuyg‘uli aloqalarni o‘z ichiga oluvchi shaxsiy majburiyatlarga doir bo‘lishi mumkin; shaxsiy ruhiy xususiyatlari va kutiladigan harakatlar yig‘indisi bilan tavsiflanuvchi rol; maqom – atrofdagilar tomonidan mazkur subyektning shaxsiga va u bajaradigan rolga beriladigan, uning ijtimoiy aloqalar tizimidagi haqiqiy va kutilayotgan o‘rnini belgilab beruvchi baho, uning darajasi [5].

Ta’kidlash joizki, xulq-atvor – shunday bilimlar majmuiki, uning asosiy maqsadi, talabalarning xatti-harakatini o‘rganishga va o‘z majburiyatlarini foydaliroq bajarishga qaratilgan. Talabalarning xulqi bir vaqtning o‘zida ularning individual fe’l-atvori, o‘zlari yashayotgan va faoliyat yuritayotgan muhit asosida shakllanadi. Ular o‘rtasida o‘zaro sog‘lom ruxiy muhitni va munosabatlarni vujudga keltirish uning faoliyat samaradorliligi oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Talabalar fe’l-atvorining xususiyatlariga xulq-atvor turiki, u vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi va har xil holatlarda ham o‘zgarmagan holda saqlanib qolishi mumkin. O‘zgarishga to‘sqinlik qiladigan asosiy sabablardan biri, bu uning fe’l-atvoridagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan bog‘liqdir. Odam qanchalik ulg‘aygan sari undagi o‘zgarish ham tez sodir bo‘ladi. Bu xususiyat bir vaqtning o‘zida odamda ham ichki ham tashqi muhit ta’sirida sodir bo‘ladi. Xulq-atvorning tashqi va ichki holatlarini tahlil qilish shunday savolni o‘rtaga chiqaradiki, agar xulq-atvor ichki omillar yordamida aniqlansa, unda o‘zgarish va rivojlanish uchun mavjud bo‘lgan imkoniyat har bir talaba uchun cheklangan bo‘ladi. Boshqa tomondan, agar xulq-atvor tashqi omillar yordamida aniqlansa,

bu imkoniyatlar chegarasiz bo‘ladi. Bizning xulq – atvorimiz tashqi omillar ta’siri asosida o‘zgarib boradi, lekin ichki omillarni ham unutmaslik kerak. Agar inson xulq-atvori o‘zgaruvchan bo‘lsa, bunday holatda muhit shaxsning xulq-atvoriga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амиров Д.А. Организационное поведение: Учебник. – М.: «Велби», 2006. – 280 с.
2. Балашов А.П. Теория организации и организационное поведение: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2014. – 220 с.
3. Gulyamova N.G. Tashkiliy xulq. Darslik. – Namangan: NamMTI, 2023. – 257 b.
4. Gulyamova N.G. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida tashkiliy xulqni rivojlantirish – dolzarb muammo sifatida. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim oluvchilarni kasbga yo’naltirish: muammolar, yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, 10-dekabr, 2024-yil. – B. 315-318.
5. Murtozayeva M.M. Umumiy pedagogika. O`quv qo`llanma. – Toshkent: Sunrise-pro, 2024. – 450 b.